

INGLIZ TILIDA PREDLOGLARNING GRAMMATIK VA
FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Ingliz tilida predloglarning grammatik va funksional xususiyatlari

Ibragimova Zuhra Umidbek qizi

Talaba, Urganch davlat universiteti

Kalit so'zlar: qiyosiy tilshunoslik, grammatik funksiyalar, predloglar, kelishik qo'shimchalari, tarjima muammolari, ingliz-o'zbek tarjimasi, kontrastiv tahlil, semantik ekvivalentlik, til o'rganish

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi predloglarning o'zbek tiliga tarjima qilinayotgandagi o'rni va ahamiyati yoritib o'tiladi. Predloglarning gapga ko'ra xususiyati, mustaqil so'z turkumlari bilan uyg'unligi ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari ingliz tilidagi ayrim predloglarning o'zbek tilidagi kelishiklarga o'xshashlik jihatlari keltirib o'tilgan. Ularning turli xil funksiyasi ya'ni makon, harakat, vaqt, sabab-oqibatga, usul va vosita ma'nolariga ko'ra ishlatilish munosabati ta'kidlab o'tilgan. Binobarin, talabalar o'rtasida olib borilgan so'rovnomalar natijasiga ko'ra uning tarjimada to'g'ri ishlatilishiga qarab kerakli tavsiyalar berib o'tiladi.

Kirish

Bugungi kunda ingliz tili rivojlanib borayotgan tillar ro'yxatida eng yuqori o'rinda turadi (Khamraev, 2019). Bu tilni o'rganish uchun esa shu til funksiyalarini amaliy va nazariy jihatdan o'rganish va tahlil etish zarur. Shubhasiz, bu tildagi predloglarni o'rganish jarayoni alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning grammatik ahamiyati va funksional jihatlarini inobatga olish kerak bo'ladi. Qolaversa, o'zbek va boshqa tillarda gapiruvchi xalqqa ingliz tilidagi predloglar notanish bo'lishi tabiiy holdir. Shuning uchun ushbu maqolada ingliz tilida predloglarning ingliz grammatikasidagi o'rni, uning ahamiyatli darajasi, eng asosiysi, uning leksik-semantik xususiyati hamda uning bir qator funksiyalari o'rganiladi.

Asosiy qism



Predloglar ingliz tili va shunga o'xshash tillarni o'rganganda yoki shu tilda gapirayotganda nutqiy tuzilma kaliti vazifasini bajaradi. Ya'ni bu xuddi o'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalari sifatida qo'llaniladi. Xususan, predlog ot yoki boshqa mustaqil so'z turkumlarining yordamchi so'zlarga nisbatan munosabatlarida bog'lovchi vazifasini bajaradi. Predlog o'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalarining aynan bo'lmasada, qisman vazifasini bajaradi. Ingliz tilida predlog gapdagi va konteksdagi o'rni va shakliga ko'ra o'zgarmaydi. Masalan, "of" predlogi ot bilan kelsa ham, kishilik yoki ko'rsatish olmoshlari bilan kelsa ham shu shaklda bo'ladi. Masalan: "It is fur of animal" gapida "of" predlogi –ning kelishik vazifasida qo'llanilib kelib, "hayvonning" degan ma'noda ishlatilyapti. Olmosh bilan qo'llaganda esa: "I chose one of them as an ideal student" gapida ham "of" predlogi xuddi undan oldingi ot bilan ishlatilyotgandagi shaklda keladi olmosh bilan ham. Predloglar qaysi mustaqil so'z turkumi bilan ishlatilsa ham shakl va ma'no jihatdan deyarli bir xildir.

Predloglarning gapdagi o'rniga ko'ra xususiyati

Darhaqiqat, predloglar odatda mustaqil so'z turkumlari, ya'ni ot, olmosh kabilarning oldidan yoki mustaqil so'z turkumlaridan ajralgan holda gapning oxirida ham kelishi mumkin. Binobarin, predlog ot yoki olmosh bilan kelganda ularning oldida aniqlovchi bo'lishi mumkin, bunday holda undan oldin keladi. Masalan, "She works in a company" gapida kompaniya so'zi ot bo'lib, undan oldin predlog kelgan. "She works in a big company" gapida esa "company" oti oldidan sifat kelgan bo'lib, undan oldin esa predlog kelgan. Masalan, "What are you looking at?" gaplarida predloglar ot yoki boshqa mustaqil so'zlardan ajralib, gap oxirida kelyapti. Chunki bu yuqorida ta'kidlanganidek, ingliz tilidagi predloglarning funksional xususiyatlaridan biridir.

Predloglar gapda sodda va qo'shma hollarda keladi. Masalan, in, at, by, on, down – bular sodda bo'lib, into, throughout qo'shma predloglardir. Yoki predlogning vazifasini bajaruvchi so'zlardan ham foydalansa bo'ladi. Chunonchi, according to, instead of, in front of, by means of, with the help of va boshqalar.

Predloglarning gapda turli xil funksiyalari



1. **Makondagi munosabatiga ko'ra farqlanishi:** Bu shaxs va narsalarning joylashuviga ko'radir. Masalan, in (ichida), on (ustuida), under (tagida), behind (orqasida) va hokazo.

2. **Harakat yo'nalishiga ko'ra:** to (tomon), from (dan), along (bo'ylab), over (uzra), across (o'tib) va hokazo.

3. **Vaqtdagi munosabatiga ko'ra:** at (da – soatga nisbatan), on (-da – sanaga nisbatan), before (oldin), after (keyin), ago (oldin). Vaqtning davomiyligiga ko'ra, for – davomida. Bunda qancha muddat davom etganligi ahamiyatga molikdir. Since – dan beri. Bunda ish-harakat qachon boshlanganligi aniq bo'ladi. Masalan:

- I have been working for three hours.
- I have been studying English since my first grade. Shuningdek, during – davomida so'zi ham ushbu turga kiradi.

4. **Sabab-oqibat munosabatiga ko'ra:** because of, due to, owing to – barchasining tarjimasi "tufayli" bo'lib, bulardan keyin gapda, albatta, ot yoki boshqa mustaqil so'z turkumlari kelishi kerak. "Even though" ham predlog bilan ishlataligan bo'lib, sabab-oqibatga misol bo'la oladi. Bu predlogdan keyin ega va kesimdan iborat bo'lgan gap kelishi lozim. Masalan:

- I did not go to school because of my illness.
- Even though he is disabled, she can draw a lot of beautiful pictures.

5. **Usul va vosita munosabatiga ko'ra:** by (orqali), with (bilan), through (orqali). Masalan:

- I go to the university by bus.
- She cut pieces of apple with a knife.

6. **Qiyoslash munosabatiga ko'ra:** like (singari, shu kabi), as (singari), than (ga qaraganda). Like va as predloglarining farqi shundaki, like – shunga o'xshab deb tarjima qilinib, deyarli o'xshashlikda ishlataladi. Masalan, "I swim like a fish." As esa shu rolda, shu salohiyatda degan ma'nosi bor. Masalan, "I study there as a student."

Talabalar o'rtasida ingliz tilidagi predloglarning o'zbek tiliga aynan tarjima qilinishi va yuqorida izoh berib o'tilgan "of" predlogini o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda yoki o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishdagi ma'no jihatdan



ahamiyatiga ko'ra olib borilgan so'rovnoma va asosan ulardan 65,4 foizi ingliz tilidagi matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda va, shuningdek, tarjima qilishdagi "of" predlogining ahamiyati jihatdan tarjimada to'g'ri yondashishgan. Qolgan 34,6 foizi esa tarjimada turli xil chalkashliklarga duch kelishar ekan.

Xulosa

Gapda predloglarni to'g'ri va o'rini qo'llash juda katta ahmiyatga egadir. Chunki xuddi o'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalari singari ular agar gapda noto'g'ri qo'llansa yoki tushirib qoldirilsa, bu uning ma'nosiga ta'sir qilishi mumkin. Darhaqiqat, predloglarni ishlatganda uning kontekstdagi o'rni va umumiy ma'nosiga ko'ra ishlatish tavsiya etiladi. Negaki ayrim predloglar yuqoridagi dalillarda ko'rsatilganidek, bir xil shakl va ma'noda kelsa ham ular grammatic xususiyatiga ko'ra farq qiladi. Ingliz tilida gaplarni tuzishda ham ularning o'rniga e'tibor bermaslikning iloji yo'q. Chunki ayrim gaplarda ular har doim birikib kelgan mustaqil so'z turkumlaridan ajralib, gap oxirida kelish holatlari ham kuzatiladi. Tarjimada ularning ishlatishdagi o'rniga ko'ra qo'llashda ehtiyyotkorlik bilan yondashish zarurligi tavsiya etiladi.

Ikkinci tilni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'zbek tilida so'zlashuvchilarini ingliz tilini o'qitishda predloglarni to'g'ri ishlatishning muhimligini tasdiqlaydi. Ingliz va o'zbek tillaridagi grammatic kelishiklarning qiyosiy tahlili bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar "o'zbek tili o'rganuvchilarining ingliz grammaticasini o'zlashtirishdagi katta qiyinchiliklarini, ayniqsa, ularning ona tilida predloglarning yo'qligi tufayli" alohida ta'kidlaydi. Bu til o'qitish dasturlarida maqsadli o'qitish strategiyalarining muhimligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Xudaybergenovna va boshqalarning (2020) tadqiqotlari interaktiv so'zlashuv faoliyatları til o'rganish natijalarini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatadi. Ularning tadqiqotida "interaktiv so'zlashuv faoliyatlarını kuchaytirish" "O'zbekistonda chet el tili o'rganuvchilarining og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun" muhim ekanligi aniqlangan bo'lib, puxta ishlab chiqilgan faoliyatlar o'quvchilarga predloglarni ishlatish kabi grammatic qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. O'quvchilar mazmunli muloqot amaliyotida



qatnashganlarida, ularning kontekstual vaziyatlarda predloglardan to'g'ri foydalanish qobiliyati sezilarli darajada yaxshilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Madiyarova, M. V. (2024). Ingliz va o'zbek tillaridagi kognitiv sinonimlarning allomorfik va izomorfik xususiyatlari. *Ta'lim, fan va innovatsion g'oyalar dunyosi*, 55(4).
2. Khamraev, K. (2019). Ingliz va o'zbek tillarida sinonimiya va antonimiya: qiyosiy tahlil. *Journal of Linguistic Studies*.
3. Xudaybergenovna, A. R., va boshq. (2020). O'zbekistonda chet el tili o'rganuvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun interaktiv so'zlashuv faoliyatlarini kuchaytirish. *Journal of Critical Reviews* 7(12), 220-224.
4. Academia.edu. (2016). Ingliz va o'zbek tillarida kelishiklarning qiyosiy tahlili. https://www.academia.edu/23644282/COMPARATIVE_ANALYSIS_OF_CASE_IN_ENGLISH_AND_UZBEK_INTRODUCTION_3_5_CHAPTER_1_THE_ORIGIN_AL_TYPES_OF_CASES_IN_TWO_DIFFERENT_LANGUAGES saytidan olingan.